

## **Tarixsiz kelajak yo'q**

„Gidromeloratsiya” fakulteti „SXIT va UF” yo’nalishi 107-guruh talabalari institut rektori prof. O’.P.Umurzoqov tomonidan tasdiqlangan 17.11.2020 yildagi talabalarning bo’sh vaqtini mazmunli tashkil etish uchun, belgilangan grafik asosida 28-noyabr kunida „Temuriylar muzeyiga”ga tashrif buyurishdi. Guruhimiz va guruh murabiyi D.G’ulomov hamrohligida tarixda buyuk nom qoldirgan Temuriylar sulolasiga sharafiga qurulgan „Temuriylar muzeyi”ga ekskursiya davomida biz talabalar o’zimizga juda ko’p qiziqarli va biz bilmagan malumotlarni shu muzeyning yo’lboshchisidan bilib oldik. Muzeyni aylanish vaqtida talabalar o’zi qiziqgan savollariga javoblar olishdi. Talabalar muzeydagi barcha eksponatlar bilan tanishib ularning tarixi haqidagi malumotlarga ega bo’lishdi.Talabalarni ayniqsa ajablantirgan narsa bizning ota bobolarimizning kuch qudrati shu qadar ulug’vor ekanligi va o’sh davrda qurilgan inshoatlar xillas bu bizga qoldirilgan meroslarni biz va bizdan oldingi avlodlarimizdanda ziyoda qilib asrab avaylashimiz kerak.Xulosa qilib sohibqiron tili bilan aytganda, “Bizning kuch-qudratimizga shubha qilsangiz, biz qurban binolarga boqing”.



TIQXMMI matbuot xizmati